



ALEKSANDR FAYNBERG – BUYUK NAMOYONDA

Umarova Dilshoda Hamro qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 1-bosqich talabasi

Uch rashuv

Uch rashuvga va'dalashaylik,
Uch rashmoqlik emas-ku gunoh.
Qaygadir bosh olib ketaylik,
Odamlarning ko'zidan uzoq.
Gitara va skripka jo'r,
Sekingina taralar navo.
Ne tilasang, ofitsiant momo
Bir lahzada aylar muhayyo.
Sachrab o'ynar qordek ko'piklar
Shampan-sharob ochilgan zamon.
Betashvishdek tuyular hayot,
Bo'limgandek go'yoki armon.
Sharob g'amni yuvar ko'ngildan,
Qanotlarin yig'ib ohista,
Muhabbat va ishonch ikkovlon
Yonimizga o'ltirar asta.
Ishonch birla, muhabbat birla
Suhbatlasha olmaymiz ro'yrost.
Ikkimizda hamma narsa bor,
Faqtgina umid yo'q, xolos.

Aleksandr Faynberg, shubhasiz, she'riyatga, tarjima va kino san'atiga ham katta hissasini qo'shgan adiblardan hisoblanadi.

A. Faynberg 1939-yilning 2-noyabrida Toshkentda tug'ilgan. Ota-onasi 1937-yilda Novosibirskdan Toshkentga ko'chib o'tishgan. Faynbergning bolalik yillari "Jukovskaya" ko'chasida o'tgan. Yetti yillik maktabini tugatgach esa, topografiya texnikumida o'qishni boshlagan. Texnikumni bitirib chiqqach esa, Tojikistonda armiya xizmatini ham o'tagan. Keyin esa Toshent davlat universiteti ya'ni hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti filologiya fakultetining journalistika bo'limida o'qigan.



Aleksandr Faynberg ijodi jarayonida o'n beshta she'riy kitob, o'zi tomonidan ikki jildli kitob yaratgan. Bundan tashqari, Faynbergning ssenariylari asosida to'rtta to'liq metrajli film va yigirmatadan ortiq animatsiya filmlar ham ishlangan.

Shuningdek, u Alisher Navoiy va boshqa ko'plab o'zbek mashhur adiblarning ijodlarini rus tiliga tarjima qilgan. Uning she'rlari "Navbat" , "Yangi dunyo", "Yoshlik" va boshqa jurnallarda, shuningdek, chet davlatlar: AQSh, Isroil, va Kanada davlatlarida chop etilgan.

Bir necha yillar davomida A. Faynberg Toshkentda O'zbekiston yosh yozuvchilarining seminariga rahbarlik qildi, shuningdek, u O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi ham hisoblangan.

Shu narsani faxr bilan aytib o'tish kerakki, Aleksandr Faynberg rus kitobxonining ko'plab O'zbek ijodkorlarning asarlaridan bahramand bo'lish imkonini berdi. Moskvada Erkin Vohidovning "O'lmaslar isyonii" poemasi, Toshkentda esa "Lebedinaya staya" to'plami, Abdulla Oripov va Xosiyat Rustamova, Sirojiddin Said va Omon Matjon she'rlarining tarjimalari nashr etilgan. Shunisi e'tiborga loyiqlik, A.Faynbergning she'rlari ham o'zbekchaga tarjima qilingan va "chig'ir" kitobida nashr etilgan.